

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

“PEDAGOGIKA” FAQULTETI


«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta'lim yo'nalishi 4 “d” kurs talabasi
Xudaybergenova Nargizaning
«Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: «Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi»ni o'qitishning
shakl va metodlari

Qabul qildi:



Nukus-2014 yil

MUNDARIJA:

I	Kirish
II	Asosiy qism
II.1	Pedagogik fanlarni o'qitishda metod va usullardan foydalanish zaruriyati
II.2	Pedagogik texnologiyada dars o'tish metodikasi
II.3	Pedagogika fanlarini o'qitishdagi metod va usullari
II.4	Ta'lim samaradorligini oshirishning interfaol usullaridan foydalanish yo'llari.
	Xulosa
	Foydalangan adabiyotlar

K I R I S H

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog'liq. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar ana shu maqsadlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma - bosqich hal etish yo'llar va vositalari Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta'limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega bo'lgan vositalardan biri sifatida ta'limning faol usullari qaralayapti. Ta'lim - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar tushunchasining kirib kelishi va o'sha texnologiyalarning keng qo'llanilishi hozirgi zamon talabidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni jadal kiritish, auditoriyada, sinfda, darsdan tashqarida o'quv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning faolligini oshirishga erishish orqaligina bajarish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, musatqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi

va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ushbu masalalar bizning **kurs ishining dolzarbligi** bo'lib hisoblanadi.

Kurs ishining maqsadi: Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llarini o'rganish.

Kurs ishining predmeti: Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda qo'yidagi **vazifalar:**

- tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlarni taxlil qilish;
- ta'lim jarayoni va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik xususiyatlarini o'rganish;
- ta'limning faol usullari, ya'ni pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash maqsadlari bilan tanishish.

II.1 Pedagogik fanlarni o'qitishda metod va usullardan foydalanish zaruriyati

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan "portlash effekti" natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;
- insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;
- fuqarolik jamiyati qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuygulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bogliq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni tulik tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan xolda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni kuzda tutadi. Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir kursatishi va bu faoliyat maxsuli

sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan kurinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izoxlashda texnologiya jarayoni asos kilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nixoyatda kupdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil kurinishlarini uchratish mumkin: "uqitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va xokazo.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayoning uzaro bog'lik kisimlarini tashkiliy jixatdan tartibga keltirish, bosqichlarni kurish, ularni joriy etish shartlarini aniklash, mavjud imkoniyatlarni xisobga olgan xolda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yigindisidir. Texnologiya uzining egiluvchanligi, natijalarning turgunligi, samaradorligi, oldindan loyixalanish zarurati bilan metodikadan farkanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb karab kelindi. Fakat 70 - yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning moxiyati yangicha talkin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning makbulligini ta'minlovchi yul-yuriklar tizimi bilan bog'lik bilimlar soxasi" ekanligi e'tirof etiladi

Ob'ektiv borlikni urganishning tizimli yondashish metodi fanda keng qulamda qullanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya qmoxiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning okilona usullarini aniklashdan iborat" deb tushuntiradi. SHuningdek, olima zamonaviy texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini o'qtiradi: "O'qitish texnologiyasi - bu o'quv jarayonini nima real tavsiflasa usha, o'qituvchiga urnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayaanish zarur bulsa usha. Bu alohida fan.

Pedagogik texnologiyani fan sifatida e'tirof etish K.K Selevko tomonidan ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yullarini tadqiq kiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qullaniladigan usullar, printsiplar va regulativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir". Olimning ta'qidlashicha "Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

1) Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ma'lum mintaqada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xusuiy predmetli pedagogik texnologiya "xususiy metodika" ma'nosida qullaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning anik mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yigindisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qullaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) Lokal (modulli) daraja: loqal texnologiya uzida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar enchimini o'zida mujassamlashtiradi (aloxida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, aloxida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustakil ishlash texnologiyasi va boshka).

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada echilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani amaliyotga joriy etishga bulgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar etarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi pedagogik texnologining asl moxiyatini aniklashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika fanining alohida tarmogi sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini makbullashtirishga yunaltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoke, pedagogik texnologiyaga “yangi” suzini qo’shib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o’qituvchilarni bir kadar uylantirib kuydi, endilikda ta’lim-tarbiya jarayonini loyixalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. Shunday ekan, “yangi pedagogik texnologiya” nimani anglatadi? Bu savolning echimini izohlashga harakat qilamiz.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta’lim (tarbiya) jarayoni uchun loyixalanadi va belgilangan maqsadni echishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirishini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma’lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o’quv yurti) mavjud bo’ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o’z ta’sirini o’tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. “Maqsad” esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o’z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta’lim-tarbiyaning maqsadini yangi yunalishga burdi, ya’ni: “o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to’la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axlokiy talablarga javob beradigan yukori malakali kadrlar tayyorlash” deb belgilanadi. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nixoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o’qitish imkoniyatlari katta bulgan yangi texnologiyalar (sanoat, qishlok xujaligi, elektron, axborot va boshka) kirib kelmokda. Ruy berayotgan sifatiy uzgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda “urganish”ning birlamchi jarayonlari an’anaviy metodika va o’qitish vositalari romiga sigmay, o’qituvchining individual kobiliyatiga mos kelmay koldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas kismiga aylanib borayotgan va unga uzining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real vokelikka aylantirdi.

II.2 Pedagogik texnologiyada dars o`qish metodikasi

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri-o`qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o`qituvchida barcha pedagogik g`oyalar mujassamlangan bo`lib uning faoliyati orqali bu g`oyalar amalga oshiriladi va hayotga tadbiiq etiladi.

O`qituvchining ko`p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni odobli, ahloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o`qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog`liq: bolalarni o`qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o`tkazish, ota-onalar o`rtasida pedagogik targ`ibot ishlarni olib borish va hakazo. Bularning hammasi o`qituvchidan chuqur bilimga ega bo`lishni, o`z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi. Agar, bolani chuqur bilimli, etiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo`lsak, shu fazilatlar o`qituvchida mujassamlangan bo`lmog`i lozim. Shunday ekan o`qituvchi, umuman boshlang`ich sinf o`qituvchisi yuksak fazilatlariga, yaxshi xulq-atvorga, eng keragi madaniyatli bo`lishi, ularni amalda qo`llashi shart.

Pedagogika fanlarini o`qitish metodikasi kursining muhim metodologik muammolaridan biri bu shaxs tarbiyasi va uning rivojlanishi muammosi hisoblanadi. O`sim va rivojlanib boruvchi inson tarbiya obekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o`zgarishlarni o`z boshidan kechirib boradi. Insonda bo`ladigan jismoniy o`zgarishlarga-bo`yining o`sishi, vaznning og`irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a`zolari va asab tizimining o`zgarib borishi kiradi. Ruhiy o`zgarishlar esa uning aqliy rivojiga aloqador bo`ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo`lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi. Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma`lumki hayoti davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o`zgarib boradi. Lekin bolalik, o`smirlik va o`spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo`ladi. Pedagogikada «shaxs» tushunchasi «inson» tushunchasidan farqli o`laroq u insonning ijtimoiy hususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan

muamalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi.

Pedagogika o'z tadqiqot obektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilimiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini ham takomillashib borishga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Hodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa hodisalar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tish daqiqalarida kuzatiladi. Pedagogika fani tarmoqlariga predmetlarni o'qitishning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan metodika ham kiradi. Shu bilan birga pedagogika fani boshqa fanlardan ajiralgan holda rivojlana olmaydi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obekti o'sib kelayotgan yosh avlod bo'lganligi uchun pedagogika insonni o'rganuvchi fanlar bilan bog'liqdir. Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi, ilimiy dunyoqarashni shakllantiradi: jamoa va shaxs muammolari vash u kabilar fanlarni metod birlashtiradi. Pedagogika fanida ko'plagan metodlar ilg'or tajiriybalarni o'rganish, kuzatish, suhbat, anketalashtirish, maktab hujjatlarini o'rganish, matematik va tadqiqot natijalarini va ularni amalda tadbqiq etish kabi metodlardan keng qo'llaniladi.

Pedagogikada «tarbiya» so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda «tarbiya» so'zi aniq tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi. O'qitish-o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv, ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi. Inson

kamoloti bu insonning keng ma`noda ichki va tashqi omillar ta`sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta`kidlanadi.

Hozirgi o`qitish jarayonida qo`yiladigan talablar nima va o`quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon talimi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o`zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o`quvchilar qatnashishi lozim bo`lgan masalalar bilan tanilishni ham talab qiladi. Garchi har bir o`qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo`lsa da, ularni qo`llashdan ko`zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta`limiy ishlarini faollashtirishdir. Natijada sinfnig bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo`ladi. Bu usul o`quvchilarning mashg`ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham huddi ana shundadir. Garchi har bir o`qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo`lsada, ularni qo`llashdan ko`zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta`limiy usullarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo`lib, birinchidan o`quvchilarni ularning etiqodiga, etiqodni esa amaliy faoliyatga, hatti-harakatga aylantiradi.

Maktabdagi o`quv jarayonining sifati ko`p omillarga bog`liq bo`lib, ular orasida o`qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o`zlashtirilishiga, o`quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Usul va metod tushunchalari o`zaro bog`liqdir, chunki ularning har bir metod sifatida ham namoyon bo`ladi. Pedagogika amaliyotida o`qitish usullari va metodlarining juda kata boyligi to`plangan. Ularni tanlashda turli sharoyitlar, o`qitilayotgan fanning harakteri, bolalarning yosh hususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hakazolar hisobga olinadi.

Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o`zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta`limda o`quvchilarning o`zidagi tajiribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir hil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mazmunini umumlashtirishda yana boshqa hil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir.

O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qoysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-etiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi.

Dastlab savollarga javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlaridagi nuqsonlarini payqash vash u zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham huddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishiga anchgina usul va metodlar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining talimiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan o'quvchilarni ularni etiqodiga, etiqodni esa amaliy faoliyatga, hatti-harakatga aylantiradi. Zotan o'qish-o'rganish, diqqat-etiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishi ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish v.hdan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va

fanning hamma sohalarida juda kata burilishlar ro'y bermoqda va ularda har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak.

Bu ishni o'quvchilarga mos ravishda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim. Mazkur talabning ikkinchi hususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikri doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amho'rlik qilishdir. Talimning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oid oddiygina bilimlar berish emas, balki uning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligi oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muxabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar vazifasi nazariy va amaliy bilish faoliyatini talimiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga kuydagi muayyan talablar qo'yiladi.

1. O'quv metodlarini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialiktik materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy hususiyatlari va quloqning shakllanishiga olib kelishi kerak. Ana shu talab nuqtaiy nazaridan metod tarbiyaviy tusta bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilimiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimlilik uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarlilik: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llashi, o'quv metodlarini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatiga bog'liq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy tadbir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosiyli.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi, va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishini unga erishish bo'yicha faoliyat uning obektini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni berishini taqazzo etadi. Har qanday faoliyat uning obektini talab qiladi. Nihoyat

metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizlikni, yoki bo'lmasa bu xolatda uning umuman noto'g'ri qo'llanilganligini etirof etish lozim. Shunday qilib har qanday uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatini bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vazifalar faoliyat obekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir. Lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Metod strukturasiga o'qish usullari turadi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishning alohida operatsiyalari bo'lib, ular mazkur metoda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan: O'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul, metoddan ajiraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini kuydagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar.

- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarini vujudga keltiradigan usullar.

- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalarni va hissiyotlarni faollashtiradigan usullar.

- nazorat va o'quvchilarni o'zini-o'zi nazorat qilish usullari.

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir hil usullarni kiritish mumkin. So'ngi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida etibor bermoqda.

II.3 Pedagogika fanlarini o'qitishdagi metod va usullari

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. "Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat".

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Qoida – tanlab olingan metod bilan bog'liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me'yoriy ko'rsatmalardir.

Ta'lim metodlari tasnifi:

1. An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)
2. Talabalarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).
5. YAxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi (YU.K.Babanskiy).
6. Ta'limning interfaol metodlari.

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish, Nazorat qilish

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi:

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari;
- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

Интерфаол методлар

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. CHalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

Ta'lim metodi	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Axboriy-retseptiv	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan talaba harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. Talabalar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Ta'lim vositalari

Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namo-yishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Ta'lim vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvalar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

“Metod” va “vosita” o'rtasidagi o'zaro nisbat

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta'limning passiv(sust) metodlari(talabalar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Ta'lim vositalaridan foydalanish shart-sharoitlari

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish talabalarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta'lim vositalari tasnifi

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'ektiga ko'ra;

- faoliyat ob'ektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;
- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat sub'ekti bo'yicha ta'lim vositalari tasnifi

Faoliyat sub'ekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

1. O'qitish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.
2. O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar talabalar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

V.A. Slasteninning fikricha, didaktik vositalar o'qituvchi va talaba uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu talabalarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va talabalar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat ob'ektlari bo'yicha ta'lim vositalari tasnifi

Faoliyat ob'ektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

1. Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.
2. Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va talabalar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oishirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va talabalarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va talabalarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari

TTV – bu o'zida o'quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga:

1. O'quv kinofilmlari.
2. Diafilmlar.
3. Kompyuterlar.
4. Magnitofon tasmlari.
5. Radioeshittirish.
6. Teleko'rsatuvlar kiradi.

TTVlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- axborot;
- aralash(kombinatsion);
- trenajyor;
- bilimlarni nazorat qilish vositalari;
- audiovizual vositalar.

TTVning funktsiyalari:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- talabalarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- talabalarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, talabalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan talabalarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

2.4 Ta'lim samaradorligini oshirishning interfaol usullaridan foydalanish yo'llari

B/B/B chizmasi – Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

B/BX/B JADVALI		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

“Erkin yozish”

O'qituvchi o'quvchilarga besh minut vaqt davomida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so'raydi. Vaqt tugagach, ba'zi o'quvchilardan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan o'quvchilar avval o'z yozganlarini o'qib bergan o'quvchilarnikiga o'xshamagan fikrlarini aytishlari mumkin.

“Besh minutlik esse”.

YOzma topshiriqning ushbu turida o'quvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo'yicha ular nimalarni o'rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so'raladi.


KLASTER

Klaster -axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markaz-lashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O'quvchilar:

1. YOzuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga **“Didaktika”** degan mavzu nomi yoziladi Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
2. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'zlar kichik doirachalar “yo'ldoshlar” yozib qo'shiladi. Ularni “asosiy” so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiradilar. Bu “yo'ldoshlardan” “kichik yo'ldoshlar” chiqariladi. YOzuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.
3. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.



KONTsEPTUAL JADVAL

Kontseptual jadval o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar:

1. Kontseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha xususiyatlarni ajratadilar

2. Alohida yoki kichik guruhlarda kontseptual jadvalni to'ldiradilar:

- *uzunlik bo'yicha* taqqoslanadigan (fikir, nazariyalar) joylashtiriladi;
- *yotig'i bo'yicha* taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

3. Ish natijalarining taqdimoti.

VENN DIAGRAMMASI

VENN DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar:

1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida Bobur, Navoiy, Jomiy va Davoniyning axloqiy tarbiyaga oid fikrlarini oydinlashti-rib olib, to'ldiradilar.

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar.

3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'y-xatini tuzadi.

4) ish natijalarining taqdimoti.



Ikki qismli kundaliklar

Ikki qismli kundaliklar (Bertalf, 1981) o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir adabiyotlarni o'quv auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirig'ini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Kog'ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg'otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg'otar. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu tsitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg'otdi? SHu munosabat bilan ularda qanday savol tug'ildi? Qisqasi, matnni o'qirkan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak.

Quyida ana shunday ikki qismli kundalikka misol keltiramiz:

SHaxs	
Davlat va jamiyat	
Uzluksiz ta'lim	
Fan	
Ishlab chiqarish	

Bayonot

Maqsadi:

- instsenirovka taklif etilgan mavzu yoki qandaydir qo'yilgan vaziyatga o'zining munosabatini konspektiv tarzda bayon etish, nutq ayta olish, tezkor fikrlay olishni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi;
- chiqishlarni tahlil qilish va baholash, ma'ruza qiluvchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

1. Pedagog yoki boshqa boshlovchi mavzuni, maqsadni e'lon qiladi va unga qiziqishni rivojlantiradi.

2. Ekspertlar va sekretar belgilanadi.

3. Qaysi mavzu bo'yicha, ma'ruzachilar o'zlarini qanday vaziyatda tasavvur qilishlari va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishlari aytib o'tiladi.

4. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi indiviudal tarzda o'zining ma'ruzasini tayyorlaydi.

5. Keyin ishtirokchilarga navbati bilan so'z beriladi. Ma'ruzalar besh minutdan oshmasligi kerak. Qolgan tinglovchilar ma'ruzachilarni tinglashadi.

6. Ma'ruzalar tugaganidan so'ng, ekspertlar chiqishlarni aytib o'tilgan mezonlar bo'yicha baholashadi. CHiqishlarni tahlil etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir ekspert chiqishga mos bahoni qo'yadi va ma'ruzachining o'rini belgilaydi. Keyin o'zining tashabbusi bilan yonidagi sherigi bilan baholash bo'yicha aloqaga kirishadi. Zaruriyat tug'ilganda, o'zining bahosiga o'zgartirish kiritadi. SHundan so'ng, umumguruhiy munozara o'tkaziladi. CHiqishlarning mazmuni tahlil qilinadi, ma'ruzachilarning xatti-harakatlaridagi ijobiy va salbiy jihatlar aniqlashtiriladi.

7. Texnik ekspert ma'ruzachilar egallagan o'rinlarni e'lon qiladi.

Boshlovchi chiqishlar bo'yicha yakuniy xulosani aytadi va umumlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, pedagogika fanlarini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni qo`llash har bir pedagogning oldiga maqsad qilib qo`yilishi shart.

Har bir pedagog bo`ljak o`qituvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni tashxis qilishda asosan metodlardan foydalaniladi, o`qituvchi bu faoliyatni amaliyotga oshirishga mutaxassis sifatida tayyorgarligini ko`rsatuvchi belgilarni o`rganish va baholash usullarning to`plamini tushuntirish lozim. Bu faoliyat muvofaqiyatlilikini tashhis qilish butunlay mustaqil tadbir bo`lmay balki u yanada kengroq tashhis jarayonlar tarkibiga kiradi.

Talim muassasalarida pedagogika fanlarning hususiyatlarini tahlil qilishda ko`pchilik o`qituvchilar faoliyati ijodiy uslubiga mo`ljallangan o`z ustilarida ish olib borishlarini ko`rsatishi lozim. O`qituvchlarning 45% yangi didaktik va tarbiyaviy kontsepsiyalar, ularning farqi avzalliklarini bilmas ekanlar. Pedagogik mahorat va ko`nikmalarga va o`ziga-o`zi baho berishda asosan oddiy ko`rsatgichlar qo`llaniladi; O`z fanini va dars berishni asosan odatiy bilimi munosabat madaniyati, tashkilotchilik mahorati, o`qituvchi mutaxassislik mahoratini belgilaydigan asosiy ko`rsatgichlar bo`lib qolaveradi. Garchi har bir o`qituvchining ishida aniqlashgina usul va metodlar mavjud bo`lmasada ularni qo`llashdan ko`zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining talimiy ishlarini faollashtiradi. Bu tadbir juda muhim bo`lib o`quvchilarni ularning etiqodga, etiqodini esa amaliy faoliyatga, hatti-harakatga aylantiradi. Zotan o`qish o`rganish diqqat etiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir. O`quvchilarni mustaqil erkin ijodkorlik bilan fikrlashga jadallikka, bilimga yangilik va murakkablikka o`rgatib borish kuchlari bilan bilim malakalarini rivojlantirish kabi bir qancha zaruriy metodlardan foydalana bilish bu pedagog-o`qituvchlarning alohida turgan eng ulug`, buyuk kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Yuksak ma`naviyat engilmas kuch». I.Karimov. Toshkent. 2008 yil
2. «O`zbekiston buyuk kelajak sari». I.Karimov. Toshkent. 2009
3. «Pedagogika tarixi». A.Zunnunova, B.To`xliev, X.Ma`sudov. Toshkent. 2002 yil
4. «Pedagogika». R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xolikberdiev. Toshkent. «O`qituvchi». 2002
5. «Pedagogika». Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov. Nukus. 2010
6. «Pedagogika». N.G`aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, Q.Toshmuratova. Toshkent. 2000 yil
7. «Pedagogik psixologiya». X.Ibragimova, A.A.Yuldasheva, X.Bobomirzaev. Toshkent. 2009
8. «Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi». D.Tajiboeva, A.Yo`ldosheva.Toshkent. 2009.
9. Ochilov M. Muallim qalb me`mori. – T.: O`qituvchi, 2001.
10. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o`qitish metodikasi. – T.: 2008.
11. Kukushin V.S. Teoriya i metodika obucheniya. – Rostov-na-Donu.: Feniks, 2005.
12. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitaniya. – Rostov-na-Donu.: Feniks, 2006.
13. Tolipov O`, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: 2005.